

Yechish algoritmi: Topshiriq o‘z tabiatiga ko‘ra murakkab testlar sirasiga kiradi. Shuning uchun, avvalo shakllarga shartli nomlar berib (masalan, “bo‘g‘irsoq”, “yarimoy”, “quyosh” va uning atrofidagi raqamlar), ularning mutanosib harakatini sinchkovlik bilan kuzatish lozim. A va B shaklga aylanganda, eng avvalo, bo‘g‘irsoq pastga tushib, “jilmaygan” holatdan “xo‘mraygan” holatga o‘tganini kuzatishimiz mumkin. A shaklga mutanosib B shakl endi C shaklga aylanganda – bo‘g‘irsoq tepada, yana jilmaygan holatda bo‘lishi mantiqiy yechimga ega. Yarimoy bilan quyosh esa A shakldan B shaklga aylanganda o‘rin almashmoqda. Demakki, B shakl C shaklga aylanganda yarimoy yana chapda, quyosh esa o‘ngda bo‘lishi mantiqiy asosga ega. A va B shakllar ichidagi raqamlarga kelsak, ular bir tartibda, kichikdan katta songa ortib borayotgani, bundan tashqari, ularning tartibi faqat 1 soni va o‘ziga bo‘linadigan tub sonlarga o‘xshashligini payqash qiyin emas[4]. Xulosa shuki, C shaklning bo‘g‘irsog‘i tepada jilmaygan, yarimoy chapda, quyosh esa o‘ngda, 4 ta tub sonlar esa 19, 23, 29, 31 bo‘lishi lozim.

Demak, topshiriqning to‘g‘ri javobi 1 raqami ostida berilgan.